

KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**IX RESPUBLIKA ILMIIY-
AMALIY KONFERENSIYASI**

**YANGI DAVR ILM-
FANI: INSON UCHUN
INNOVATSION G'OYA
VA YECHIMLAR**

MAY, 2026

ISSN 3093-8791

ELEKTRON NASHR:
<https://konferensiyalar.com>



KONFERENSIYALAR COM

ANJUMANLAR PLATFORMASI

**YANGI DAVR ILM-FANI:
INSON UCHUN INNOVATSION
G'OYA VA YECHIMLAR**

**IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, may

TOSHKENT-2026

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 9-son (may, 2026-yil).– 66 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 14-may

Mas'ul muharrir:

Isanova Feruza Tulqinovna

Annotatsiya

Mazkur to'plamda "Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar" mavzusidagi IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari jamlangan. Nashrda respublikaning turli oliy ta'lim muassasalari, ilmiy markazlari va amaliyotchi mutaxassislari tomonidan tayyorlangan maqolalar o'rin olgan bo'lib, ular ijtimoiy-gumanitar, tabiiy, texnik va yuridik fanlarning dolzarb muammolari va ularning innovatsion yechimlariga bag'ishlangan.

Ushbu nashr ilmiy izlanuvchilar, oliy ta'lim o'qituvchilari, doktorantlar va soha mutaxassislari uchun foydali qo'llanma bo'lib xizmat qiladi.

Kalit so'zlar: ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsion yondashuv, zamonaviy fan, fanlararo integratsiya, ilmiy-tadqiqot, nazariya va amaliyot, ilmiy hamkorlik.

Barcha huquqlar himoyalangan.

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

MUNDARIJA

FALSAFA FANLARI

Boyxonov Umidjon

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA RAQAMLI TRANSFORMATSIYA VA
XIZMAT SIFATINI OSHIRISHNING INNOVATSION MEKANIZMLARI 4-9

FILOLOGIYA FANLARI

Amonboyeva Feruzaxon

O'ZBEK MEDIADISKURSIDA MUHBIR NUTQINING PRAGMATIK XUSUSIYATLARI 10-12

Isomidinova Zilola

RAQAMLI DAVRDA SO'Z ERKINLIGI VA AXBOROT XAVFSIZLIGI MUVOZANATI 13-15

Ortiqova Ezozxon

INGLIZ TILI NOTARIAL TERMINOLOGIYASI TAVSIFI 16-25

Isanova Feruza

O'ZBEK VA INGLIZ HUQUQIY TERMINLARINING LINGVOMADANIY
XUSUSIYATLARI 26-29

YURIDIK FANLAR

Хайдарова Хилола

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ОСОБЕННОСТИ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ИММУНИТЕТОВ И
ПРИВИЛЕГИЙ В СОВРЕМЕННОМ МЕЖДУНАРОДНОМ ПРАВЕ 30-33

PEDAGOGIKA FANLARI

Хайдарова Намунахон

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM
TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH ZARURATI:
PEDAGOGIK ASOSLAR VA TA'LIMIY OMILLAR 34-37

Parmonov Abdutolib

UMUMIY TEXNIK KOMPETENTLIKNI SHAKLLANTIRISHDA NAZARIY MEKANIKANI
O'QITISHNING INNOVATSION-DIDAKTIK MODELINI 38-41

Ибрагимова Нилуфар

ПРОДУКТИВНЫЙ СЛОВАРЬ СТУДЕНТОВ В1 В ПРОЦЕССЕ АУДИРОВАНИЯ
ПОДКАСТОВ 42-45

Adamatov Anvar

KOREYA TA'LIM TIZIMIDA TALABA MARKAZLI YONDASHUVNING
KONSTRUKTIVISTIK TAHLILI 46-50

Qo'ldasheva Shoxsanam

BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING MAHORATINI VIRTUAL O'YIN VA
SIMULYATSIYALAR YORDAMIDA RIVOJLANTIRISH 51-54

Kasimova (Mulladjanova) Nasiba

LOYIHA TA'LIM TEXNOLOGIYASI ASOSIDA TALABALARNING MUSTAQIL BILIM
OLISH MOTIVATSIYASINI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK IMKONIYATLARI 55-57

SIYOSIY FANLAR

Dilshoda Khakimova

WOMEN IN DECISION-MAKING POSITIONS: DOES FEMALE LEADERSHIP IMPROVE
GOVERNANCE OUTCOMES? 58-65

INGLIZ TILI NOTARIAL TERMINOLOGIYASI TAVSIFI

Ortiqova Ezozxon Adhamovna

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Ushbu maqolada ingliz tili notarial terminologiyasining tarixiy shakllanishi, nazariy asoslari va tizimli tavsifi yoritilgan. Notarial terminologiya Anglo-Sakson huquq tizimining o'ziga xos rivojlanish yo'li, Norman istilosi davridagi fransuz va lotin tillari ta'siri hamda ingliz kolonial imperiyasining kengayishi natijasida shakllangan. Maqolaning asosiy maqsadi – notarial terminlarni tematik guruhlariga ajratib, ularning semantik, funksional va tizimli xususiyatlarini ochib berish. Tadqiqotda tarixiy-qiyosiy metod, terminologik tahlil va tavsiflash metodlari qo'llanilgan. Asosiy natijalar sifatida notarial terminologiyaning to'rtta tematik guruhi ajratilgan: 1) notarius faoliyati va vakolatlari bilan bog'liq terminlar (notary public, commission, notarial seal, apostille); 2) notarial harakatlar va jarayonlarni ifodalovchi terminlar (authentication, certification, legalization, attestation, verification, notarization); 3) notarial hujjat turlari (affidavit, power of attorney, deed, will, codicil); 4) huquqiy subyektlarni ifodalovchi terminlar (principal, agent, grantor, grantee, testator, beneficiary, signatory). Shuningdek, maqolada Sarcevic, Sosoni, Alcaraz Varo, Ready kabi olimlarning huquqiy terminologiya va tarjimaga oid nazariy qarashlari tahlil qilingan. Xulosa qilib aytganda, ingliz tili notarial terminologiyasi mantiqiy tizimga ega bo'lib, to'rtta guruh o'zaro ierarxik va funksional bog'liqlikda notarial diskursning konseptual maydonini tashkil etadi. Maqola yuridik lingvistik, terminologiya va notarial tarjima sohalari mutaxassislari uchun nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Kalit so'zlar. notarial terminologiya, ingliz huquqiy tili, terminologik guruhlar, notary public, authentication, affidavit, power of attorney, huquqiy tarjima, terminologik ekvivalentlik.

DESCRIPTION OF ENGLISH NOTARIAL TERMINOLOGY

Artiqova Ezozkxon Adhamovna

PhD student at Jizzakh State Pedagogical University

Annotation. This article discusses the historical formation, theoretical foundations and systematic description of English notarial terminology. Notarial terminology was formed as a result of the specific development of the Anglo-Saxon legal system, the influence of French and Latin during the Norman conquest, and the expansion of the English colonial empire. The main purpose of the article is to divide notarial terms into thematic groups and reveal their semantic, functional and systemic characteristics. The study used the historical-comparative method, terminological analysis and descriptive methods. As the main results, four thematic groups of notarial terminology were distinguished: 1) terms related to the activities and powers of a notary (notary public, commission, notarial seal, apostille); 2) terms expressing notarial actions and processes (authentication, certification, legalization, attestation, verification, notarization); 3) types of notarial documents (affidavit, power of attorney, deed, will, codicil); 4) terms representing legal entities (principal, agent, grantor, grantee, testator, beneficiary, signatory). The article also analyzes the theoretical views of scholars such as Sarcevic, Sosoni, Alcaraz Varo, Ready on legal terminology and translation. In conclusion, the English notarial terminology has a logical system, and four groups form the conceptual field of notarial discourse in a hierarchical and functional relationship. The article is of theoretical and practical importance for specialists in the fields of legal linguistics, terminology and notarial translation.

Keywords: notarial terminology, English legal language, terminological groups, notary public, authentication, affidavit, power of attorney, legal translation, terminological equivalence.

DOI: <https://doi.org/10.47390/ydif-y2026v2i9/n04>

Ingliz tili notarial terminologiyasi anglo-sakson huquq tizimining o'ziga xos xususiyatlari va tarixiy rivojlanish yo'li bilan shakllanib, bugungi kunda xalqaro huquqiy muloqotning muhim qismini tashkil etadi.

Ingliz tili notarial terminologiyasi XIII-XIV asrlarda paydo bo'lgan bo'lib, bu davr Angliyada umumiy huquq tizimining shakllanishi bilan bog'liq hamda bu davrdagi notarial

terminologiya Norman istilosi davrida shakllangan fransuz va lotin tillarining kuchli ta'siri ostida rivojlangan. Notariuslar dastlab Papalik legati yoki Kanterberiya arxiyepiskopi tomonidan tayinlanar va ko'pchilik ruhoniylar orasidan chiqardi. 1533-yilda Ecclesiastical Licences Act (Ruhoniy litsenziyalar to'g'risidagi qonun) qabul qilindi, bu qonun Papalik vakillarining notariuslarni tayinlash huquqini bekor qildi va bu vakolatni Kanterberiya arxiyepiskopiiga berdi. Bu qonun Angliya Reformatsiyasining to'g'ridan-to'g'ri natijasi bo'ldi. 1801-yilda Public Notaries Act (Davlat notariuslari to'g'risidagi qonun) qabul qilindi, bu qonun Court of Faculties institutini va notariuslarni tayinlash hamda tayyorlash qoidalarini mustahkamladi.

Bu davr terminologiyasida *notary public* (davlat notariusi), *attestation* (tasdiqnoma), *authentication* (haqiqiyiligini tasdiqlash) kabi asosiy tushunchalar paydo bo'ldi.

Norman huquqiy tizimining ta'siri natijasida ingliz tilida ko'plab fransuzcha va lotincha atamalar o'zlashtirildi. Masalan: "*acknowledgment*" lotincha "*agnoscere*" so'zidan olingan bo'lib, "tan olish, tasdiq etish" ma'nolarini anglatadi. "*deponent*" so'zi ham lotinchadan "*deponere*" so'zidan olingan bo'lib, "guvohlik beruvchi" ma'nosini anglatadi. Yana bir notarial terminologiyaga xos leksik birlik "*testament*" ham lotinchadan olingan bo'lib, vasiyatnoma ma'nosida ishlatiladi.

XVI-XVII asrlarda ingliz kolonial imperiyasining kengayishi bilan notarial amaliyot ham rivojlandi. Bu davrda *commission* (notarius vakolatnomasini berish), *seal* (muhr), *certificate* (guvohnoma) kabi atamalar keng tarqaldi.

Ingliz tili notarial terminologiyasi sohasida bir qator nufuzli tadqiqotchilar o'z ilmiy ishlarini olib borgan va ushbu sohaning nazariy asoslarini yaratishga katta hissa qo'shganlar. Susan Sarcevic huquqiy tarjima sohasida kompleks tadqiqot olib borgan birinchi olimlardan biri hisoblanadi va uning 1997-yilda nashr etilgan "New Approach to Legal Translation" asari huquq va tarjima nazariyasining o'zaro bog'liqligini o'rganuvchi interdissiplinar tadqiqot sifatida e'tirof etilgan. U terminologik nomuvofiqlik (terminological incongruency) muammosini huquqiy tarjimaning asosiy muammosi sifatida ta'kidlagan va ikki huquqiy tizimning mos keladigan atamalarini konseptual darajada kamdan-kam hollarda bir xil ekanligini isbotlagan. Uning yondashuvida ekvivalentlik turlari aniq tasniflanadi: to'liq ekvivalentlik (full equivalence), qisman ekvivalentlik (partial equivalence) va ekvivalentlik yo'qligi (non-equivalence). Bu tasnif notarial hujjatlar tarjimasida keng qo'llaniladi. U shuningdek ikki tilli huquqiy lug'atlar faqat konseptual yo'naltirilgan bo'lgandagina ishonchli bo'lishi mumkinligini ta'kidlab, konseptual tahlil funksional ekvivalentlarning ekvivalentlik darajasini o'lchash, ularning tarjima uchun qabul qilinishini baholash va hatto terminologik nomuvofiqlikni kompensatsiya qilish uchun ishlatilishi mumkinligini ko'rsatgan.

Vilemini Sosoni va John O'Shea yunon notarial shartnomalarini ingliz tiliga tarjima qilishda mulk huquqi atamalarini tadqiq qilgan va yunon fuqarolik huquq tizimi bilan ingliz umumiy huquq tizimi o'rtasida tizimga bog'liq tushunchalarni o'tkazish masalasini tahlil qilganlar. Ular 20 ta yunon tilida notarial shartnoma va ularning ingliz tiliga tarjimasidan iborat parallel korpusni tahlil qilib, professional huquqiy tarjimonlar tomonidan atamalar va ularning asosidagi tushunchalarni qanday ishlatilishini aniqlashgan. Parallel korpusda eng ko'p ishlatiladigan o'nta mulk huquqi atamalarining inglizcha ifodalarini muhokama qilgan holda, Sarcevic yondashuviga muvofiq besh holatda "qisman ekvivalentlik" va boshqa besh holatda "ekvivalentlik yo'qligi" aniqlangan. Yunonistonda mulkdorlik tushunchasi Angliya va

Uelsda mulk egalarning huquq va majburiyatlari bilan taqqoslaganda farq qiladi; birinchi tizimda mulkni rasmiy o'tkazish uchun notarial savdo shartnomalari majburiy hisoblanadi.

Enrique Alcaraz Varo va Brian Hughes "Legal Translation Explaine" asarida ingliz huquqiy tilini tarjima qilish muammolariga keng ko'lamli yondashuv taqdim etganlar. Alcaraz Varo huquqiy ingliz tilini tarjima qilishda yuzaga keladigan muammolarni muhokama qilib, leksika (va terminologiya) huquqiy tarjima tahlilida asosli ravishda eng ko'p e'tibor olganligini ta'kidlagan, chunki leksika tilning ramziy yoki vakillik funksiyasini boshqa lingvistik komponentlarga qaraganda yaxshiroq bajaradi. Ushbu tadqiqot huquqiy terminologiyani tadqiq qilishda, huquqiy lug'atni tarjima qilishda, ayniqsa anizomorfizm tushunchasi orqali ba'zi muammolarni ko'rib chiqish bilan birga, takrorlash, tematizatsiya, passivlash va nominalizatsiyada anfraktuoznost tushunchasi orqali huquqiy tarjimada sintaksisning muammolarini hal qilishga harakat qilgan. Alcaraz Varo va Hughes tomonidan yaratilgan ikki tilli ispancha-inglizcha huquqiy atamalar lug'ati oltinchi nashrida 419 betlik inglizcha atamalar va ularning ispancha ekvivalentlari hamda 305 betlik ispancha atamalar va ularning inglizcha ekvivalentlarini o'z ichiga oladi.

Ingliz tili notarial terminologiyasining tarixiy rivojlanishi va zamonaviy holati bo'yicha eng nufuzli manbalardan biri "Brooke's Notary" asari hisoblanadi. Ushbu asar birinchi marta 1839-yilda nashr etilgan bo'lib, hozirda Nigel Ready muharrirligida 15-nashri mavjud. Brooke's Notary notarial amaliyot bo'yicha standart asar hisoblanadi va Angliya va Uelsda, shuningdek ko'plab xorijiy yurisdiksiyalarda notarial amaliyot va protseduralar bo'yicha muhim ma'lumotlarni o'z ichiga olgan zarur ma'lumotnoma bo'lib xizmat qiladi. Asarning birinchi bobida notariuslarning tarixiy rivojlanishi batafsil bayon etilgan. Davlat notariusining lavozimi davlat mansabi hisoblanadi va uzoq va sharaflil tarixga ega bo'lib, bu lavozim qadimgi Rim fuqarolik institutlaridan kelib chiqqan. Scribe deb ataladigan davlat amaldorlari, ya'ni kotiblar, oddiy faktlar va sud jarayonlarini qayd qiluvchilar, nusxa ko'chiruvchilar va transkriberlardan shaxsiy va davlat ishlarida taniqli bo'lgan o'qimishli kasb darajasiga ko'tarilganlar. Ba'zilari Senat va sudlariga biriktirilgan doimiy amaldorlar bo'lib, ularning vazifalari davlat ishlarini qayd qilish, davlat hujjatlarini ko'chirish, hakim va sudyalarga huquqiy shakllarni taqdim etish va hakim va sudyalarning qarorlari va hukmlarini ro'yxatdan o'tkazish bo'lgan. Respublika davrining oxirgi asrida Tsitseron davrida uning asrab olgan o'g'li Markus Tullius Tiro tomonidan, ularga nisbatan "notae Tironianae" deb nom berilgan stenografiyaning yangi shakli ixtiro qilingan va "notae" deb ataladigan ba'zi ixtiyoriy belgilar va ramzlar so'zlar o'rniga ishlatilgan. Bu tarixiy ma'lumotlar notarial terminologiyaning lotin tilidan kelib chiqqan ko'plab atamalarining etimologik tahlili uchun muhim asos yaratadi.

Brooke's Notary asarida o'rta asrlardan zamonaviy davrgacha bo'lgan notarial institutning rivojlanishi keng yoritilgan. XII asrdan boshlab o'rta asr Italiyada fuqarolik huquqi o'z uyg'onishini boshdan kechirganida, notarius o'sha huquqning markaziy instituti sifatida tashkil topdi va bu mavqe Yevropa va Janubiy Amerikaning aksariyat qismi kabi fuqarolik huquqidan kelib chiqqan huquq tizimlariga ega mamlakatlarda hali ham saqlanib turibdi. Notarius lavozimi XII asrda Italiyaning Boloniya shahrida o'zining cho'qqisiga chiqadi va uning eng taniqli vakili 1300-yilda vafot etgan va asosiy asari "Summa Artis Notariae" bo'lgan Rolandino Passeggeri, odatda Boloniyalik Rolandino deb tanilgan. Angliyadagi umumiy huquqning Rim huquqi ta'siridan ozod holda alohida rivojlanishi notariuslarning Angliyaga XIII va XIV asrlarda kirib kelishiga olib keldi. Bu qonuniy o'zgarishlar ingliz tili

notarial terminologiyasida yangi atamalarining paydo bo'lishiga va mavjud terminlarning semantik o'zgarishlariga sabab bo'ldi.

Brooke's Notary asarining zamonaviy nashrlari notarial terminologiyaning hozirgi zamon tendensiyalari va yangi texnologiyalarning ta'sirini batafsil yoritadi. Kitobda notarius sifatida qabul qilish tartibini, notariuslarning turli toifalarini, notariuslarni tayyorlash va tayinlashni qamrab olgan, shuningdek 2019-yildagi Notariuslar Amaliyot Qoidalari (Notaries Practice Rules 2019) va notarial kasbni tartibga soluvchi boshqa qoidalar ko'rib chiqilgan. Ishonchnomalar (powers of attorney), qasamyodli bayonotlar (affidavits), deklaratsiyalar va kema protestlari, obligatsiya va debentur operatsiyalari hamda aksiya emissiyasi ovoz berishlari kabi turli notarial hujjatlar va ularning terminologik xususiyatlari batafsil tahlil qilingan. Brooke's Notary asari qiyosiy huquq nuqtai nazaridan ham katta ahamiyatga ega, chunki unda Shotlandiya, Shimoliy Irlandiya va Irlandiya Respublikasi, shuningdek Fransiya, Germaniya, Italiya va Ispaniyadagi ommaviy shakldagi hujjat talablari bo'yicha bo'limlar kengaytirilgan va yangilangan. Bu qiyosiy yondashuv turli huquqiy tizimlar o'rtasidagi notarial terminologiyaning o'xshashlik va farqlarini aniqlash, shuningdek terminologik ekvivalentlik muammolarini hal qilish uchun muhim nazariy va amaliy asos yaratadi.

Fernando Prieto Ramos huquqiy tarjimada muammo yechish uchun parametrlarni ishlab chiqqan va bu parametrlar huquqiy leksikografiya va institutsional terminologiya boshqaruviga ta'sir ko'rsatadi.

Huquqiy terminologiya va frazeologiya tillar va yurisdiksiyalar bo'ylab mavhum huquqiy bilimlarni tizimlashtirish uchun ko'plab usullarni ifodalaydi, chunki bu bilim tuzilmalari milliy darajada xilma-xil bo'lib, turli huquqiy an'analar va madaniyatga bog'liq o'ziga xosliklarni aks ettiradi. Terral ta'kidlaganidek, huquqiy tizimlar o'rtasida tarjima uchun terminologik ish muqarrar ravishda oldindan belgilangan nominativ moslikni qidirishdan ko'ra, huquqiy tushunchalarning qiyosiy tahliliga qaratilgan.

Notarial terminologiyaning tasnifi terminologik tizimning ichki tuzilishini, terminlar o'rtasidagi paradigmatic munosabatlarni va ularning funksional-semantik xususiyatlarini ochib beradi. Terminologik guruhlarini ajratish notarial diskursning konseptual maydonini tushunish va terminologik birliklar o'rtasidagi ierarxik aloqalarni aniqlash imkonini beradi. Shuning uchun, ingliz tili notarial terminologiyasining asosiy tematik guruhlarini va ularning lingvistik xususiyatlarini batafsil tahlil qilish muhim hisonlanadi.

Birinchi guruh terminologiyasiga notarius faoliyati va vakolatlari bilan bog'liq terminlarni kiritdik. Ushbu guruh notarial institutning asosiy konseptual tushunchalarini ifodalaydi va notarius lavozimi, uning vakolatlari hamda huquqiy maqomiga oid terminlarni o'z ichiga oladi. Bu guruh notarial terminologiyaning yadro qismini tashkil etadi, chunki notarius instituti va uning faoliyati butun notarial tizimning markaziy unsuri hisoblanadi. Masalan, *"Notary public"* va *"public notary"* terminlari ingliz tilining ikki asosiy varianti amerika va britaniya ingliz tilida qo'llaniladigan asosiy nomlanishlardir. *"Notary public"* birikmasida *"notary"* ot vazifasini, *"public"* esa aniqlovchi vazifasini bajaradi va "jamoat, davlat" ma'nosini anglatadi. Brooke's Notary asarida ta'kidlanishicha, "notary public" atamasi lotin tilidan kelib chiqqan *"notarius publicus"* tushunchasining to'g'ridan-to'g'ri tarjimasi bo'lib, "davlat notariusi" yoki "jamoat notariusi" ma'nosini bildiradi. AQShda *"notary public"* ko'proq qo'llanilsa, Britaniyada *"public notary"* varianti ham keng tarqalgan.

"Notarial act" birikmasida "notarial" sifat "notary" otidan hosil bo'lgan bo'lib, "-ial" qo'shimchasi orqali "notarial, notariusga tegishli" ma'nosini anglatadi. "Act" so'zi lotin tilidan kelib chiqqan bo'lib (lotin "actus" – harakat, ish) "rasmiy huquqiy harakat" ma'nosini bildiradi. Ready ta'kidlashicha, notarial harakat notariusning o'z vakolatlari doirasida amalga oshiradigan rasmiy yuridik harakati hisoblanadi. Notarial harakatlar quyidagi turlarni o'z ichiga oladi: hujjatlarni tasdiqlash, imzolarni tan olish, qasamyod olish, nusxalarni tasdiqlash va boshqalar.

"Commission" termini notariusga berilgan rasmiy vakolatni anglatadi. Bu so'z lotin "commission" ("topshiriq, vakolat berish") so'zidan kelib chiqqan. Ingliz huquq tizimida commission notariusni rasmiy ravishda tayinlash va unga muayyan vakolatlarni berish to'g'risidagi rasmiy hujjatni bildiradi. Brooke's Notary asarida quyidagicha ta'riflanadi: "The notary public's commission is the formal grant of authority to perform notarial acts, issued by the appropriate governmental or ecclesiastical authority". Angliya va Uelsda bu vakolat Court of Faculties (Vakolatlar sudi) tomonidan beriladi, AQShda esa shtat hukumati tomonidan.

"Faculty" termini maxsus huquqiy kontekstda "ruxsat, vakolat" ma'nosini anglatadi. Bu so'z lotin "facultas" ("qobiliyat, imkoniyat, vakolat") so'zidan kelib chiqqan. Angliya va Uels huquq tizimida faculty Court of Faculties tomonidan beriladigan maxsus ruxsat yoki litsenziyani bildiradi. Tarixiy jihatdan, bu termin cherkov huquqidan kelib chiqqan va hozirda asosan notariuslarni tayinlash kontekstida qo'llaniladi.

"Notarial seal" va "official seal" terminlari notariusning rasmiy muhri tushunchasini ifodalaydi. "Seal" so'zi qadimgi fransuz tilidan (seel) kelib chiqqan bo'lib, "muhr" ma'nosini bildiradi. Notarial muhr notariusning vakolatlarini tasdiqlovchi rasmiy belgisidir. Readyning fikricha, "The notarial seal is an essential element of the notarial act, serving to authenticate the document and demonstrate the notary's authority". Zamonaviy amaliyotda muhr quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi: notariusning to'liq ismi, "Notary Public" yozuvi, yurisdiksiya (shtat, graflik) va vakolatning tugash sanasi.

"Protest" termini maxsus notarial harakat turini bildiradi. Bu so'z lotin protestari ("guvohlik berish, e'lon qilish") so'zidan kelib chiqqan. Tijorat huquqida protest vekselning qabul qilinmaganligi yoki to'lanmaganligini rasmiy tasdiqlash jarayonidir. Brooke's Notary asarida protest "a formal declaration made by a notary public, under seal, attesting the dishonor of a bill of exchange or promissory note" sifatida ta'riflanadi.

"Apostille" termini 1961-yildagi Gaaga konvensiyasiga muvofiq hujjatlarning xalqaro tan olinishini ta'minlovchi maxsus belgini bildiradi. Bu so'z fransuz tilidan (apostille – "qo'shimcha, izoh") kelib chiqqan. Apostil notarial yoki boshqa rasmiy hujjatning haqiqiylikini tasdiqlash uchun qo'yiladigan standartlashtirilgan belgidir.

Ingliz tilidagi ko'pchilik terminlar lotin va fransuz tillaridan o'zlashtirilgan bo'lib, murakkab terminlar (ikki komponentli) ustunlik qiladi, ularda semantik aniqlik va bir ma'nolilik kuzatiladi va rasmiy-huquqiy uslubga xos hisoblanadi.

Bu terminlar asosan quyidagi kontekstlarda ishlatiladi:

- Notarial guvohnomalar
- Vakolat berish hujjatlari
- Professional huquqiy matnlar
- Notarial qonunchilik hujjatlari

Misol uchun: *"The notary public's commission is issued by the Court of Faculties and authorizes the practitioner to perform notarial acts within the jurisdiction of England and Wales"*.

Ikkinchi guruh terminologiyasiga notarial harakatlar va jarayonlarni ifodalovchi terminlarni kiritish mumkin. Bu guruh notarial amaliyotda amalga oshiriladigan turli harakatlar va jarayonlarni ifodalovchi terminlarni birlashtiradi. Ushbu terminlar asosan fe'llardan hosil bo'lgan otlar (verbal nomlar) yoki gerundiylar bo'lib, dinamik jarayonlarni ifodalaydi.

Authentication (haqiqiyligini tasdiqlash): *"Authentication"* termini lotincha *"authenticus"* ("haqiqiy, ishonchli") so'zidan kelib chiqqan bo'lib, hujjat yoki imzoning haqiqiyligini rasmiy tasdiqlash jarayonini bildiradi. Sarcevicning fikricha, *"authentication"* konsepti turli huquqiy tizimlarda turlicha tushunilishi mumkin. Anglo-sakson huquqida bu termin hujjatning haqiqiy ekanligini va uning to'g'ri tuzilganligini tasdiqlashni anglatadi. Tiersma ta'kidlashicha, *"Authentication in legal context refers to the process by which the genuineness of a document or signature is verified and certified by an authorized official"*.

Notarial kontekstda *"authentication"* imzolangan shaxsning shaxsini tekshirish, hujjatning to'g'ri tuzilganligini tasdiqlash, notarial muhr va imzo qo'yish, tegishli guvohnoma yozishkabi jarayonlarni o'z ichiga oladi.

Certification (sertifikatlashtirish, tasdiq etish): *"Certification"* termini lotin *certificare* ("tasdiqlash, kafolatlash") so'zidan kelib chiqqan. Bu jarayon biror hujjat, nusxa yoki fakt haqiqiy ekanligini rasmiy tasdiqlashni bildiradi. Readyning fikricha, *"Certification is the act by which a notary public attests to the truth or accuracy of a fact, particularly when certifying a copy of an original document"*.

Certification jarayonining asosiy bosqichlari asl hujjatni ko'rib chiqish, nusxaning asl nusxa bilan to'liq mosligini tekshirish, tasdiqlash guvohnomasini yozish, notarial muhr va imzo qo'yish kabilarni o'z ichiga oladi. Misol uchun: *"I certify that this is a true and accurate copy of the original document presented to me on this date."*

Legalization (legalizatsiya qilish): *"Legalization"* termini lotincha *"legalis"* ("qonuniy") so'zidan kelib chiqqan bo'lib, chet el hujjatining boshqa davlatda huquqiy kuchga ega bo'lishi uchun maxsus rasmiylashtirish jarayonini bildiradi. Legalizatsiya konsular legalizatsiya va apostil qo'yish orqali amalga oshirilishi mumkin. Brooke's Notary asarida ta'kidlanishicha, *"Legalization is the process by which the official character of the person who has signed a public document and the authenticity of the seal or stamp which the document bears are certified"*.

Attestation (guvohlik berish, tasdiqnoma): *"Attestation"* termini lotincha *attestari* ("guvohlik berish") so'zidan kelib chiqqan. Bu termin ikki ma'noda qo'llaniladi: 1) guvoh sifatida harakat qilish; 2) hujjatni rasmiy tasdiqlash. Black's Law Dictionary *"attestation"*ni *"The act of witnessing the execution of a document and subscribing to it as a witness"* deb ta'riflaydi.

Notarial kontekstda attestation quyidagi elementlarni o'z ichiga oladi:

- Hujjat imzolanishiga guvoh bo'lish
- Imzolovchining shaxsini tasdiqlash
- Guvoh sifatida o'z imzosini qo'yish
- Tegishli tasdiqnoma yozish

Verification (tekshirish, tasdiqlash): “*Verification*” termini lotincha “*verificare*” (“haqiqiy qilish, tasdiqlash”) soʻzidan kelib chiqqan. Huquqiy kontekstda bu termin bayonot yoki hujjatning toʻgʻriligini rasmiy tasdiqlashni bildiradi. Tiersmaning fikricha, “*verification is the confirmation of the correctness, truth, or authenticity of a pleading, account, or other paper, by an affidavit or oath*” sifatida tushuniladi.

Notarization (notarial tasdiqlash): “*Notarization*” termini notarius tomonidan hujjatni rasmiy tasdiqlash jarayonining umumiy nomlanishidir. National Notary Association taʼrifiga koʻra, “*Notarization is the official fraud-deterrent process that assures the parties of a transaction that a document is authentic, and can be trusted*”.

Uchinchi guruh terminologiyasiga notarial hujjat turlarini ifodalovchi terminlar mansub boʻlib, ushbu guruh notarial amaliyotda qoʻllaniladigan turli xil hujjatlar nomlanishlarini oʻz ichiga oladi. Har bir hujjat turi oʻziga xos notarial funktsiya va shaklga ega.

Affidavit (qasamyodli bayonot): “*Affidavit*” termini oʻrta asr lotin tilidan (*affidavit* – “u qasamyod qildi”) kelib chiqqan boʻlib, qasamyod ostida berilgan yozma bayonotni bildiradi. Black’s Law Dictionary “*affidavit*”ni quyidagicha taʼriflagan: “*A voluntary declaration of facts written down and sworn to by the declarant before an officer authorized to administer oaths*”.

Affidavit tuzilmasi quyidagi elementlarni oʻz ichiga oladi:

1. *Caption* (sarlavha): sud yoki organ nomi
2. *Title* (nomi): affidavit turi
3. *Venue* (joy): davlat va okrug
4. *Body* (asosiy qism): faktlarning bayoni
5. *Jurat* (qasamyod formulasi): notarius tomonidan toʻldiriladi
6. *Signature* (imzo): deponentning imzosi
7. *Notarial certificate* (notarial guvohnoma): notariusning imzosi va muhri

Brooke’s Notary asarida affidavitning ikki asosiy turi ajratiladi: *affidavit of service* (xizmat koʻrsatish haqidagi affidavit) va *affidavit of identity* (shaxsni tasdiqlash affidavit). Masalan: “*I, John Smith, being duly sworn, depose and say that I am the owner of the property located at 123 Main Street, and that all the statements made herein are true and correct to the best of my knowledge, information and belief.*”

Power of Attorney (ishonchnoma): “*Power of attorney*” birikmasida “*power*” – “vakolat, huquq” maʼnosini, “*attorney*” esa “vakil, ishonchli shaxs” maʼnosini anglatadi. Termin birgalikda “vakolat beruvchi hujjat” yoki “ishonchnoma” maʼnosini bildiradi. Readyning taʼkidlashicha, “*A power of attorney is a written instrument whereby one person, called the principal, appoints another person as agent and confers upon that person the authority to perform certain specified acts on behalf of the principal*”.

Ishonchnomalar quyidagi turlarga boʻlinishi mumkin:

- *General power of attorney* (umumiy ishonchnoma): keng vakolatlar beradi.
- *Special/Limited power of attorney* (maxsus/cheklangan ishonchnoma): aniq vakolatlarni belgilaydi.
- *Durable power of attorney* (doimiy ishonchnoma): prinsipalning qobiliyatsiz holga tushishida ham amal qiladi
- *Springing power of attorney* (shartli ishonchnoma): maʼlum shart bajarilganda kuchga kiradi.

Ishonchnomalarda quyidagi standart formulalar qo'llaniladi: *"Know all men by these presents that I, [Principal's name], of [address], do hereby nominate, constitute and appoint [Attorney's name], of [address], as my true and lawful attorney-in-fact to act in my name, place and stead in any way which I myself could do, if I were personally present."*

Deed (shartnoma, hujjat): "Deed" termini qadimgi ingliz tilidan (*dæd* – "harakat, ish") kelib chiqqan bo'lib, muhrlangan va topshirilgan yozma hujjatni bildiradi. Black's Law Dictionary "deed"ni "A written instrument by which land is conveyed" deb ta'riflaydi.

Deed tuzilmasining zaruriy elementlari quyidagilar:

1. *Parties* (tomonlar): grantor va grantee
2. *Recitals* (kirish qism): hujjat maqsadi
3. *Operative words* (asosiy qism): "hereby grant, convey and transfer"
4. *Description* (tavsif): mulkni aniq tavsiflash
5. *Habendum clause* (egalik qismi): mulk huquqining turi
6. *Covenants* (kafolatlar): grantorning majburiyatlari
7. *Testimonium clause* (yakun formula): "In witness whereof..."
8. *Execution* (ijro): imzolar va muhrlar

Will or Testament (vasiyatnoma): "Will" va "testament" terminlari sinonim hisoblanadi, ammo tarixiy jihatdan farqli kelib chiqishga ega. "Will" qadimgi ingliz tilidan (*willa* – "iroda, xohish") kelib chiqqan, "testament" esa lotin tilidan ("*testamentum*" – "guvohlik, vasiyat"). Readyning fikricha, "A will is a legally executed instrument by which a person makes a disposition of his or her property to take effect after death".

Vasiyatnomaning asosiy turlari:

- *Formal will* (rasmiy vasiyatnoma): yozma, imzolangan va guvohlar ishtirokida tuzilgan
- *Holographic will* (qo'lyozma vasiyatnoma): to'liq qo'l bilan yozilgan
- *Nuncupative will* (og'zaki vasiyatnoma): og'zaki ifodalangan (ayrim holatlarda)
- *Joint will* (qo'shma vasiyatnoma): ikki yoki ko'p shaxsning birgalikdagi vasiyatnomasi
- *Mutual will* (o'zaro vasiyatnoma): bir-biriga vasiyat qiluvchi shaxslarning vasiyatnomalari

Vasiyatnomaning standart boshlanishi quyidagicha bo'lishi mumkin:

"I, John Smith, of the City of London, being of sound mind and memory, do hereby make, publish and declare this to be my Last Will and Testament, hereby revoking all wills and codicils heretofore made by me."

Codicil (vasiyatnomaga qo'shimcha): "Codicil" termini lotin "*codicillus*" ("kichik kitob, qo'shimcha") so'zidan kelib chiqqan bo'lib, mavjud vasiyatnomaga o'zgartirish yoki qo'shimcha kirituvchi hujjatni bildiradi.

Declaration (deklaratsiya, bayonnoma): "Declaration" termini lotincha *declarare* ("e'lon qilish, bildirish") so'zidan kelib chiqqan. Huquqiy kontekstda bu termin rasmiy bayonot yoki e'lonni bildiradi.

Certificate of authentication (haqiqiylik guvohnomasi): Bu termin notarius tomonidan hujjat yoki imzoning haqiqiylikni tasdiqlovchi rasmiy guvohnomadidir. "Certificate" tuzilmasi standartlashtirilgan bo'lib, notariusning imzosi va muhri bilan tasdiqlanadi.

Notarial instrument (notarial hujjat): "*Instrument*" termini lotincha "*instrumentum*" ("qurol, vosita, hujjat") so'zidan kelib chiqqan bo'lib, huquqiy mazmunni o'z ichiga olgan rasmiy yozma hujjatni bildiradi. *Notarial instrument* notarius tomonidan tuzilgan yoki tasdiqlangan hujjatdir.

To'rtinchi guruh terminologiyasiga huquqiy subyektlarni ifodalovchi terminlar kiradi. Bu guruh notarial harakatlarda ishtirok etuvchi shaxslarni ifodalovchi terminlarni birlashtiradi. Ushbu terminlar huquqiy munosabatlar tizimida ishtirokchilarning rolini va huquqiy maqomini belgilaydi.

Principal (prinsipal, asosiy shaxs): "*Principal*" termini lotincha "*principalis*" ("birinchi, asosiy") so'zidan kelib chiqqan bo'lib, ishonchnoma beruvchi yoki asosiy shaxsni bildiradi. Black's Law Dictionary ta'rifiga ko'ra, "Principal is the person who authorizes another to act on his or her behalf as agent". Ishonchnoma munosabatlarida principal o'z vakolatlarini agentga topshiradigan shaxsdir.

Agent or Attorney-in-fact (vakil, ishonchli shaxs): "*Agent*" termini lotincha *agens* ("harakat qiluvchi") so'zidan kelib chiqqan. "*Attorney-in-fact*" birikmasida "*attorney*" –"vakil" ma'nosini anglatadi va "*in fact*" qo'shimchasi bilan "amaliy vakil" ma'nosini bildiradi (yuridik maslahatchidan farqli o'laroq). Readyning fikricha, "An agent or attorney-in-fact is a person authorized by a principal to act on the principal's behalf in legal or business matters".

Grantor or grantee (huquq beruvchi yoki huquq oluvchi): "*Grantor*" va "*grantee*" terminlari qadimgi fransuz tilidan (*garanter* – "bermoq") kelib chiqqan. *Grantor* mulk yoki huquqni beruvchi shaxs, "*grantee*" esa oluvchi shaxsdir. Bu terminlar asosan mulk shartnomalarida (*deeds*) qo'llaniladi.

Testator or testatrix (vasiyat qiluvchi): "*Testator*" termini lotincha "*testari*" ("guvohlik berish, vasiyat qilish") so'zidan kelib chiqqan. "*Testator*" vasiyatnoma tuzgan erkak shaxsni, "*testatrix*" esa ayol shaxsni bildiradi. Zamonaviy amaliyotda gender-neutral termin sifatida "*testator*" har ikki jins uchun qo'llanilmoqda.

Beneficiary (foyda oluvchi, benefitsiar): "*Beneficiary*" termini lotincha "*beneficium*" ("yaxshilik, foyda") so'zidan kelib chiqqan bo'lib, vasiyatnoma bo'yicha foyda oluvchi shaxsni bildiradi.

Signatory (imzolovchi): "*Signatory*" termini lotincha "*signare*" ("belgilash, imzolash") so'zidan kelib chiqqan bo'lib, hujjatga imzo chekkan shaxsni bildiradi.

Ingliz tili notarial terminologiyasining tematik guruhlari aniq tizimga ega bo'lib, har bir guruh o'ziga xos semantik va funksional xususiyatlarga ega. Olib borilgan tahlilimiz shuni ko'rsatdiki, notarial terminologiya to'rtta asosiy guruhga bo'linadi: notarius faoliyati va vakolatlar bilan bog'liq terminlar, notarial harakatlar va jarayonlarni ifodalovchi terminlar, notarial hujjat turlarini ifodalovchi terminlar, huquqiy subyektlarni ifodalovchi terminlar. Bu guruhlar o'rtasida ierarxik va funksional bog'liqlik mavjud bo'lib, ularning birgalikdagi tizimi notarial diskursning to'liq konseptual maydonini tashkil etadi. Notarius faoliyati terminlari asosiy konseptual yadroni tashkil qiladi va boshqa barcha guruhlar uchun tayanch bo'lib xizmat qiladi. Harakatlar va jarayonlar terminlari dinamik jarayonlarni ifodalab, notarial institutning funksional jihatini ochib beradi. Hujjat turlari materiallash vositalari sifatida huquqiy munosabatlarni rasmiy shaklda mustahkamlaydi, huquqiy subyektlar ishtirokchilar tizimini belgilaydi.

Bunday terminologik guruhlariga ajratish notarial terminologiyaning tizimli tabiatini isbotlaydi va terminlar o'rtasidagi paradigmatic hamda sintagmatik munosabatlarni ochib beradi. Notarius faoliyati bilan bog'liq terminlar yadro vazifasini bajarib, notarial institutning mavjudligi va uning vakolatlari haqida asosiy ma'lumotlarni beradi. Harakatlar va jarayonlar terminlari bu yadrodan kelib chiqib, notariusning konkret vazifalarini ifodalaydi. Hujjat turlarini ifodalovchi terminlar esa notarial harakatlarning natijalari va ularning materiallashgan shakllaridir. Huquqiy subyektlar terminlari notarial munosabatlardagi ishtirokchilarning rolini belgilaydi va ularning huquqiy maqomini aniqlaydi. Bu guruhlar o'rtasidagi o'zaro bog'liqlik shuni ko'rsatadiki, ingliz tili notarial terminologiyasi tasodifiy to'plam emas, balki aniq mantiqiy tuzilishga ega bo'lgan murakkab va tartibli sistemadir. Har bir terminologik birlik o'z o'rniga ega bo'lib, umumiy tizimning ajralmas qismini tashkil etadi va notarial diskursning samarali funkcionallashuvini ta'minlaydi.

Adabiyotlar/Литература/References:

1. https://en.wikipedia.org/wiki/Notary_public
2. <https://informednotariesofmaine.org/history-of-notary-public/>
3. <https://www.ukinf.org.uk/history.html>
4. <https://www.online-latin-dictionary.com/latin-english-dictionary.php?lemma=AGNOSCO100>
5. Sarcevic S. et al. New approach to legal translation. – Kluwer Law International BV, 1997.
6. Sosoni V. et al. Translating law: A comparison of human and post-edited translations from Greek to English //Revista de Llengua i Dret. – 2022.
7. Alcaraz E., Hughes B. Legal translation explained. – Routledge, 2014.
8. Alcaraz Varó E. In memoriam: Brian Hughes //Revista alicantina de estudios ingleses, No. 16 (Nov. 2003). – 2003.
9. Ready, N.P. Brooke's Notary / N.P. Ready. – 15th edition. – London: Sweet & Maxwell, 2023. – Chapter 1: History and Development of the Notarial Profession.
10. Passageriis R. Summa totius artis notariae. – apud Franciscum Rampazetum, 1977.
11. Black, H.C. Black's Law Dictionary / H.C. Black. – 11th edition. – St. Paul: Thomson Reuters, 2019.
12. Ready, N.P. Brooke's Notary / N.P. Ready. – 15th edition. – London: Sweet & Maxwell, 2023. – Chapter 8: Affidavits and Declarations.

YANGI DAVR ILM-FANI: INSON UCHUN INNOVATSION G'OYA VA YECHIMLAR

IX RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI

2026-yil, may

Mas'ul muharrir: *F.T.Isanova*
Texnik muharrir: *N.Bahodirova*
Diszayner: *I.Abdihakimov*

Yangi davr ilm-fani: inson uchun innovatsion g'oya va yechimlar.
IX Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari to'plami.
2-jild, 9-son (may, 2026-yil). – 66 bet.

Mazkur nashr ommaviy axborot vositasi sifatida 2025-yil, 8-iyulda
C-5669862 son bilan rasman davlat ro'yaxatidan o'tkazilgan.

ISSN: 3093-8791 (onlayn)

Elektron nashr: <https://konferensiyalar.com>

Konferensiya tashkilotchisi: "Scienceproblems Team" MChJ

Konferensiya o'tkazilgan sana: 2026-yil, 14-may.

Barcha huquqlar himoyalangan.
© Science problems team, 2026-yil.
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.